

# **Jarqo'rg'on tumanida sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishildi**



Davlatimiz rahbari huzurida joriy yil 8 sentyabr kuni o'tkazilgan sanoat korxonalari barqaror ishlashi uchun tarmoq va hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Jarqo'rg'on tumanidagi sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishish va muammolarini o'rganish ishlari o'tkazildi.

Xususan, bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Jarqo'rg'on tumaniga tashrifining dastlabki manzilida "Surxon Teks" MChJning mato ishlab chiqarish korxonasi faoliyati bilan tanishdi. Joriy yil iyunъ oyida ishga tushirilgan korxona yiliga 8 mln pogonametr mato ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, eksport imkoniyati 15,5 mln dollarni tashkil etadi. Yaratilgan ish o'rnlari soni 50 ta.

Shuningdek, shu yerning o'zida "Surxon Teks" MChJ va "Nortex Style" MChJlarning sanoat ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha taqdimot bilan tanishildi hamda mavjud muammolar muhokama qilindi. Topshiriqqa asosan viloyat shtabi bilan ishlab, korxonalarni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash ko'rsatmasi berildi.

[Surxon daryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)